

## EVALUATION OF THE EFFICIENCY OF STRATEGIC PLANNING OF AN ENTERPRISE ON THE BASIS OF ECONOMETRIC AND STATISTICAL ANALYSIS: ON THE EXAMPLE OF “SANEG CONSTRUCTION” HQK

Author: **Shohzod Bobajanov Egamberdi ugli**

Higher educational institution: Karshi State Technical University

Direction: Econometrics and Statistics

Email: shakhzod.100794@gmail.com

**Annotation:** This scientific thesis presents the results of the analysis of the effectiveness of strategic planning at the “SANEG Construction” HQK enterprise based on econometric and statistical methods. The study was carried out on the basis of financial and production indicators obtained for 2022–2024. The goal is to determine the impact of strategic planning indicators on profit, cost and investment activities, as well as to assess financial risks and economic potential factors.

**Keywords:** strategic planning, econometric model, financial risk, economic potential, correlation, efficiency, profit, statistics.

## KORXONA STRATEGIK REJALASHTIRISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLIL ASOSIDA BAHOLASH: “SANEG CONSTRUCTION” HQK MISOLIDA

**Muallif:** Shohzod Bobajanov Egamberdi o‘g‘li

**Oliy ta’lim muassasasi:** Qarshi Davlat Texnika Universiteti

**Yo‘nalish:** Ekonometrika va Statistika

**Email:** shakhzod.100794@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy tezisda “SANEG Construction” HQK korxonasida strategik rejalashtirish samaradorligini ekonometrik va statistik usullar asosida tahlil qilish natijalari yoritilgan. Tadqiqot 2022–2024 yillar davomida olingan moliyaviy va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari asosida amalga oshirildi. Maqsad — strategik rejalashtirish ko‘rsatkichlarining foyda, xarajat va investitsion faoliyatga ta’sirini aniqlash, shuningdek moliyaviy risklar va iqtisodiy potensial omillarini baholashdir.

**Kalit so‘zlar:** strategik rejalashtirish, ekonometrik model, moliyaviy risk, iqtisodiy potensial, korrelyatsiya, samaradorlik, foyda, statistika.

### Ma’lumotlar va tadqiqot metodologiyasi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini ta’minlash strategik rejalashtirish tizimining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishiga bog‘liq. Statistik tahlil natijalari korxonaning ichki boshqaruv tizimi samaradorligini miqdoriy baholash имқонини беради.

Tadqiqot doirasida “SANEG Construction” HQK korxonasining 2022–2024 yillardagi asosiy moliyaviy ma’lumotlari (daromad, xarajat, sof foyda, investitsiya hajmi) asosida regressiya va korrelyatsiya tahlillari amalga oshirildi. Natijada strategik tashabbuslar soni bilan foyda o‘sishi o‘rtasida  $r = 0.71$  qiymatli ijobiy bog‘liqlik aniqlandi. Bu natija korxonaning strategik qarorlarini kuchaytirish foyda ko‘rsatkichlarini oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Dispersiya tahlili shuni ko'rsatdiki, foyda o'zgarishining **48 foizi** strategik boshqaruv sifatiga bog'liq. Har bir yangi strategik tashabbus o'rtacha **4,3–4,6%** miqdorda foyda o'sishiga olib keladi. Bu esa rejalashtirish samaradorligining amaliy natijasini iqtisodiy jihatdan tasdiqlaydi.

### Moliyaviy risklarning ekonometrik bahosi

Tahlil davomida moliyaviy risklar ham modelga kiritildi. Risk ko'rsatkichi foyda va xarajatlarning o'zgaruvchanligi asosida hisoblandi:

$$RISK = \frac{\sigma_{foйда}}{\mu_{foйда}} + \frac{\sigma_{xarajat}}{\mu_{xarajat}}$$

Regressiya modeli quyidagicha shakllantirildi:

$$Y_t = \beta_0 + \beta_1 SP_t + \beta_2 INV_t + \beta_3 COST_t + \beta_4 RISK_t + \varepsilon_t$$

Bu yerda:

$Y_t$  — foyda o'sish sur'ati,

$SP_t$  — strategik rejalashtirish darajasi,

$INV_t$  — investitsiyalar hajmi,

$COST_t$  — xarajat indeksi,

$RISK_t$  — moliyaviy risk ko'rsatkichi.

Ekonometrik natijalarga ko'ra, moliyaviy risk koeffitsienti  $\beta_4 = -0.87$  бўлиб, 5% ishonchlik darajasida statistik ahamiyatga ega. Bu shuni kўrsatadiki, moliyaviy risk 1% ga oshganda foyda o'sishi o'rtacha 0,9–1,1% ga kamayadi. Model aniqlik koeffitsienti  $R^2 = 0.53$  бўлиб, risk omini hisobga olish tahlil sifatini yaxshilaganini kўrsatdi.

### Iqtisodiy potensialning ekonometrik va statistik bahosi

Korxonaning iqtisodiy salohiyati quyidagi yo'nalishlar bo'yicha baholandi: qurilish, marketing, moddiy resurslar, moliya, ilmiy-tadqiqot va kadrlar salohiyati.

| № | Lokal potentsiallar               | Ahamiyat koeffitsienti | Potensial bahosi | Tuzatish bilan yakuniy baho |
|---|-----------------------------------|------------------------|------------------|-----------------------------|
| 1 | Qurilish                          | 0,150                  | 64,51            | 9,68                        |
| 2 | Marketing                         | 0,320                  | 39,72            | 12,71                       |
| 3 | Moddiy resurslar                  | 0,050                  | 64,24            | 3,21                        |
| 4 | Moliya                            | 0,270                  | 26,30            | 7,10                        |
| 5 | Ilmiy-tadqiqot ishlari            | 0,100                  | 23,27            | 2,33                        |
| 6 | Kadrlar va tashkiliy imkoniyatlar | 0,110                  | 63,90            | 7,03                        |
|   | <b>Umumiy potensial bahosi</b>    | <b>1,000</b>           |                  | <b>42,06</b>                |

*Manba: Hisob-kitoblar "SANEG Construction" HQKning mavjud ishlab chiqarish va moliyaviy hisobotlar asosida amalga oshirildi*

Statistik tahlil natijalariga ko'ra, korxonaning umumiy iqtisodiy potentsiali **42,06%** deb baholangan bo'lib, bu resurslardan

to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Eng kuchli yo'nalishlar — marketing (12,71%) va qurilish (9,68%), eng past salohiyat esa ilmiy-tadqiqot sohasida (2,33%) qayd etildi. Potensial bilan foyda o'sishi o'rtasida  $r = 0.62$  dаражали ўрта кучли bog'liqlik аниқланди. Regressiya моделида потенциал омилининг коэффиценти  $\beta_1 = 0.47$  бўлиб, statistik аҳамиятга эга ( $p < 0.05$ ). Бу натижа корхона салохиятидан самарали фойдаланиш фойда ўсишини 0.47 бирликка оширишини англатади.

### Xulosa

Olib borilgan tahlillar "SANEG Construction" HQK misolida strategik rejalashtirish samaradorligini oshirishda iqtisodiy potensial, investitsiya hajmi va risk monitoringining ўзаро боғлиқлигини кўрсатди. Strategik tashabbusларнинг кўпайиши foyda darajasiga ijobiy ta'sir кўрсатади, biroq risk omillarining oshishi bu ta'sirni pasaytiradi.

Shu sababli, korxona boshqaruv tizimida riskga asoslangan strategik monitoring tizimini жорий этиш таклиф этилади. Tadqiqot natijalari asosida boshqa sanoat korxonalari ham ushbu ekonometrik yondashuvni o'zlarining strategik va moliyaviy rejalashtirish жараёнларида қўллашлари мумкин.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chandler A.D. Strategy and Structure: A Chapter in the History of Industrial Enterprises / A.D. Chandler. Cambridge, Mass, MIT Press, 2021 – 189 p.;
2. Kasimova T. (2020). Strategik boshqaruvda statistik tahlil usullari. Toshkent.
3. 12. Mintzberg, H.. The Rise and Fall of Strategic Planning. Harvard Business Review, 2018, - 194 p. O'zbekiston Respublikasi (2024). "Uzbekistan – 2030" strategiyasi (PF-37).
4. SANEG Construction HQK (2024). Ichki moliyaviy va strategik hisobotlar (2022–2024 yillar). Nashr etilmagan manba.